QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI ELLIKQALA RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI ELLIKQAL’A TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2025-yil 22-oktabr | 175-13-194-Q/25 | Ellikqal’a tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2026-yil uchun band qilish to‘g′risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “**Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g′risida”gi** Nizomi, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabr kungi “**Aholi bandligi to‘g′risida”gi** 642-sonli Qonunining 39-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”** 2025-yil 4-avgustdagi **PF-126**-son Farmoniga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limining 2025-yil 5-sentabr kungi 12/05-02/01/07-620-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabr kungi “Aholi bandligi to‘g′risida”gi 642-sonli Qonunining 39-moddasiga muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumandagi korxonalar, tashkilotlar, idoralar uchun ishchilarning ro‘yxati bo′yicha o′rtacha sonidan 56 odam, 3,0 foiz miqdorda shu hisobdan:

a) muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar 42,8 foiz 24 nafar;

b) kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari 42,8 foiz 24 nafar;

c) nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 9 foiz 5 nafar;

d) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod bo‘lgan shaxslar uchun 3,6 foiz 2 nafar;

e) oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlangan shaxslar uchun 1,7 foiz 1 nafar ish o‘rinlari 2026-yil uchun band qilinsin.

3. Band qilinishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlari sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilash uchun maxsus komissiya 1-ilovaga muvofiq, 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari maqsadli ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq, 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq, 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 4-ilovaga tasdiqlansin.

4. Korxona va tashkilotlar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj hamda ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta′minlash uchun 2025-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish o‘rinlari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2026-yilning 10-aprelidan kechiktirmasdan ish o‘rinlarining qolgan qismi 75 foizini tashkil qilish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) haqidagi, ya′ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlarini band qilish kasb va lavozimlari, mutaxassislar kesimidagi ma′lumotlarni va qaror asosida chiqarilgan buyruq nusxalarni tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga topshirish vazifalari yuklatilsin.

5. Korxona, muassasa va idoralar rahbarlariga ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar ish o‘rinlarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabr kungi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g′risida” gi Nizomga muvofiq belgilangan muddatda va tartib bilan yaratilishini (ajratilishini yoki band qilib qo‘yilishini) hamda ish o‘rinlarini

sanitariya-gigiyena qoidalariga va ishchilar o‘z vazifalarini qiyinchiliklarsiz bajarishini ta′minlaydigan mehnat shartnomalariga muvofiq bo‘lishini ta′minlasinlar.

6. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilot va korxonalarning mansabdor shaxslariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g′risida”gi Nizomning 21-bandiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabr kungi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g′risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda ish izlayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkillashtirilgan tashkilotlar shu ish o‘rinlarini tashkillashtirishga sarflangan mablag′ning bir qismini tuman kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnoma asosida bandlikka ko′maklashish davlat jamg’armasi mablag′lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari hisobga olinsin.

8. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg′armasi mablag′lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g′risida Nizomni tasdiqlash haqida” gi buyrug′iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga - har bir xodim uchun bir yil davomida oyiga bazaviy hisoblashning 2 baravari miqdorida haq to′lash” to‘g′risidagi Nizomga asosan subsidiya ajratilishini ta′minlansin.

9. Tuman kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (R.Matsapayev) ushbu qarorni tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishini nazorat qilishni ta′minlasin.

10. Ellikqal′a tuman hokimining 2024-yil 28-oktabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilish to‘g′risida”gi 188-13-194-Q/24-sonli qarori o′z kuchini yo′qotgan deb hisoblansin.

11. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

12. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Alimov zimmasiga yuklatilsin.

Ellikqal’a tumani hokimi  **V.Niyazimbetov**

Ellikqal’a tumani hokimining
2025-yil 22-oktabrdagi
175-13-194-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Band qilinishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlari sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilash uchun maxsus komissiya

B.Alimov	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, *komissiya raisi*
Sh.Ko‘shnazorov	O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Ellikqal’a tumani bo‘limi boshlig‘i, *komissiya raisi o‘rinbosari*
B.Shaxanov	Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
R.Matsapayev	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i, *komissiya kotibi*
D.Satimov	Tuman hokimligi qoshidagi ijtimoiy ko‘nikma markazi rahbari
D.Aniyazov	Tuman tibbiyot birlashmasi bosh shifokori
O.Biymbetov	Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi boshlig‘i
A.Atavullayev	Tuman TMEK raisi

D.Xakimbayev Yoshlar Ishlari agentligi bo‘limi boshlig‘i

Ellikqal’a tumani hokimining
2025-yil 22-oktabrdagi
175-13-194-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Qaroqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumani bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari to‘g‘risida
MA’LUMOT

T/r	Hudud nomi	Tuman (shahar) nomi	Jami tashkilot soni (3=7+17)	Xodimlari soni (4=8+18)	shundan	Jami band qilinadigan ish o‘rinlari soni (6=10+20)	Davlat tashkilotlari soni (20 nafardan ortiq xodimi borlar)	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:						Tadbirkorlik subyektlari soni (100 nafardan ortiq xodimi borlar)	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
					nogironligi bo‘lgan shaxslar soni (5=9+19)				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar			nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
A	*1*	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	*12*	*13*	*14*	*15*	*16*	*17*	*18*	*19*	*20*	*21*	*22*	*23*	*24*
JAMI			**33**	**3252**	**130**	**56**	**32**	**2997**	**125**	**54**	**5**	**1**	**24**	**22**	**2**	**0**	**1**	**255**	**5**	**2**	**0**	**0**	**0**	**2**

1	QR	Ellik qal’a tuma ni	33	3252	130	56	32	2997	125	54	5	1	24	22	2	0	1	255	5	2	0			2

Ellikqal’a tumani hokimining
2025-yil 22-oktabrdagi
175-13-194-Q/25-son qaroriga
3-ilova

Ellikqal’a tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar

JAMI:			**2997**	**125**	**54**	**5**	**1**	**24**	**22**	**2**	**0**
1	Ellikqal’a tuman tibbiyot birlashmasi	200914296	1292	63	23	2	1	11	7	2	
2	Ellikqal'a tumani 1-sonli bolalar va o'smirlar sport maktabi	309348793	40		1				1		
3	Ellikqal’a kasb-hunar maktabi	200914264	108	3	1	1					
4	Ellikqal'a tumani 1-sonli Respublika tumanlararo ftiziatriya shifoxonasi	207167501	70	1	1				1		
5	Ellikqal'a tumani 2-sonli Respublika ruxiy va asab	200393550	124	1	1				1		

	kasalliklari dispanseri										
6	Ellikqal'a tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi	200400501	75	2	1			1			
7	Ellikqal'a tumani sanitariya va epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi	200914161	65	1	1			1			
8	3-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897228	75	1	1				1		
9	14-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206896728	47		1			1			

10	16-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206896743	66	6	1				1		
11	18-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206896767	82	4	1				1		
12	22-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203218692	145	9	1				1		
13	25-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206896814	74		1	1					
14	34-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897149	46	2	1	1					
15	47-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206896925	40	2	1			1			
16	48-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897077	35	3	1			1			

17	49-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206896933	36		1				1		
18	50-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897060	46	2	1				1		
19	54-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897045	47	3	1				1		
20	56-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897038	26	2	1			1			
21	58-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897021	33	2	1			1			
22	60-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206978403	61	2	1			1			
23	65-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206896617	33	2	1			1			

24	4-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	207009134	62	3	1				1		
25	5-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	203584500	68	5	1			1			
26	17-son maktabgacha taʼlim tashkiloti	207059287	34	1	1				1		
27	19-son maktabgacha taʼlim tashkiloti	207058977	28	1	1			1			
28	20-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	207059034	30	3	1				1		
29	24-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	207059065	32		1				1		
30	25-son maktabgacha taʼlim tashkiloti	207274804	30	1	1			1			

31	34-son maktabgacha ta′lim tashkiloti	309949987	40		1				1		
32	35-son maktabgacha ta′lim tashkiloti	311871177	29		1			1			

Ellikqal’a tumani hokimining
2025-yil 22-oktabrdagi
175-13-194-Q/25-son qaroriga
4-ilova

Ellikqal’a tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
Jami:			**255**	**5**	**2**	**0**	**0**	**0**	**2**
1	"Boston optimal tekstil" MCHJ	304569428	255	5	2				2